

Yosh kamonchilar bellashuvi



Yosh kamonchilar bellashuvi

Sport insonni chiniqtiradi, uni kamolotga yetkazadi. Aytish lozimki, Respublikamizda sportni rivojlantirish va bu sohaga yoshlarni jalb etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Kamondan o'q otish ham sportning bir turi hisoblanadi. Ushbu sport turini rivojlantirishga qaratilgan ishlar bugun o'z samarasini berayotir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 iyundagi "Kamondan otish sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5149-son Qarori hamda Farg'ona viloyati qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlangan reja jadvaliga asosan yoshlar o'rtasida So'x tumani qo'riqlash bo'limi tomonidan "kamondan otish" musobaqasi tashkil etildi.

So'x tumani qo'riqlash bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Rustamjon Mamajonovning ma'lumotiga ko'ra, mazkur musobaqa tumanning bolalar yozgi sog'lomlashtirish oromgohida bevosita mutasaddi idoralar vakillari nazorati ostida o'tkazildi.

Mazkur bellashuvda yosh kamonchilar mahorati imtihondan o'tkazildi. Musobaqa nihoyasida faxrli o'rinni olgan yoshlarga sovrinlar topshirildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-07-08 18:23:41